

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT

Adabiyotshunoslik

2025 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas'ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigul Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Ilhom Sayitqulov, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“Adabiyotshunoslik” – “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta nashr etiladi.

Jurnalning **“Adabiyotshunoslik”** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

“Adabiyotshunoslik” seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Adabiyotshunoslik” seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqq boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Dilnavoz Yusupova Samarqand shahri ikki buyuk siymo talqinida	5
Sohiba Umarova Sa'diy Xorazmiy devoni nusxalari va janrlar tarkibi	16
Olimjon Abdullayev Balog'at ilmi rivojida arab shariatining o'rni.....	27
Muattar Axmedova O'rta Osiyoda agiografik asarlarning o'rganilishi	47
Asadullojon Aminjonov Sharq adabiy merosida tafsir ilmining shakllanishi, metodologiyasi va yurtimizda yetishib chiqqan soha yetakchilari	58
Xafiza Abduraimova Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr va Masih obrazlari talqini	75
Sarvinoz Qurbonova Nodim Namangoniyning poetik mahorati	88
Dilnavoz Sattorova Sa'diy lirikasi kiritilgan to'plam-bayozlar tavsifi	102
Firuza Ibragimova "Devoni Faqiriy Xorazmiy" qo'lyozma devonining dastxat nusxasi ...	117
Dilafroz Bozorboyeva Pahlavonquli Ravnaq hayoti va lirik merosi	130
Mahliyo Rasulova "Hayrat ul-abror" dostoni hikoyatlaridagi tasavvufiy mazmunning badiiy talqini	141
Rayhon Norqulova "Yo'qotganlarim va topganlarim" asarida ustozlar yodi	151
Charos Kuvondikova Furqat ijodining o'rganilishi haqida ba'zi mulohazalar	160

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Abdulla Ulug'ov Adabiy qahramon – insonning adabiyotdagi obrazi	168
---	-----

Sitorabonu Ataullayeva

Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida ruhiyat va tabiat tasviri202

Dilnoza Sayfullayeva

“Sariq devning o‘limi” romanidagi obrazlarning biografik asosi214

Umida Abdullayeva

Expressive Description of London and Market in Dickens’ Novel Oliver Twist224

Sa'diy Xorazmiy devoni nusxalari va janrlar tarkibi

Sohiba Umarova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diy Xorazmiy hayoti va ijodi haqidagi manbalar tahlili hamda "Devoni Sa'diy"ning qo'lyozma va toshbosma nusxalari asosida olib borilgan matniy tadqiq natijalari aks etgan. "Devoni Sa'diy"dagi janrlar tarkibi xilma xil bo'lib, devon matni g'azal, mustazod, musaddas, muxammas, masnaviy, qasida kabi janr va she'riy shakllarni aks ettiradi. "Devoni Sa'diy"ning barcha manbalarida she'rlar miqdori bir xilda berilmagan, janrlar tarkibini jadval asosida ko'rsatish tahlil etish jarayonini yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga, "Devoni Sa'diy"ning hozirgi joriy yozuvga tabdilini tayyorlash masalasi maqolada ochib berildi.

Kalit so'zlar: *Xorazm, san'at, adabiyot, matnshunoslik, manba, qo'lyozma, matn, tadqiq, tahlil.*

Kirish

Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diy Xivaning so'nggi xoni Sayyid Abdullaxon (1918-1920-yillar Xiva xoni) ning o'g'li bo'lib, Sa'dulloh to'ra 1886-yili Xivaning Deshan qal'asidagi podshoga tegishli "Nurullaboy" hovlisida tug'ilgan. Sa'dulloh to'ra bobosi saroyida o'sib, ulg'aygan. Sayyid Abdullaxonning onasi Ziyodabeka Komil Xorazmiyning qizi bo'lgan. Ya'ni, shu jihatdan Sayyid Sa'dulloh to'raning ham katta bobosi Komil Xorazmiy bo'ladi.

Sa'dulla to'ra eski maktabni bittirgan, madrasa ta'limini olmagan bo'lsa ham ilmi kuchli bo'lgan. Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diy yoshligidan adabiyotga mehr qo'yib, sharq mumtoz shoirlar asarlarini o'qib o'rganadi. Sa'dulloh to'ra Sa'diy 18 yoshida Bayoniyga shogird tushganidan so'ng she'r mashq qilishni boshlagan.

Tabiiy "Majmuat-ush shuaroysi payravi Feruzshohiy" asarida Sa'diy haqida shunday yozadi:

¹ Umarova Sohiba Zakirovna – falsafa fanlari doktori PhD, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: sohibaumar@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8733-8973

Iqtibos uchun: Umarova, S. "Sa'diy Xorazmiy devoni nusxalari va janrlar tarkibi". *O'zbekiston: til va madaniyat.* 2025, 1 (2): 16-26.

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.2025.1.2/LLUL3413

Biri Sa'diy oqil-u nuktadon,
Ki oxtuq shahanshahga komron.
Onga ism Sa'dulloh shahzodadur,
Zamiri kuduratdin ozodadur.

I.Xajiyeva shoir haqida shunday yozadi: "Sa'diy zamondoshlari uni qiziqish doirasi keng shaxs, faol kitobxon va usta shaxmatchi sifatida ham eslashadi" [I.Xajiyeva, 2008, 32]. Sayyid Sa'dulloh to'ra "...juda zehni o'tkir odam edi. Bir ko'rgan narsasini, xoh arabiy bo'lsin, xoh forsiy bo'lsin, darrov yodlab olar edi" [Bobojon Tarroh, 1994, 35].

Haqiqatan, Sayyid Sa'dulloh to'raning "Sa'diy" taxallusini tanlashi ham fors adabiyotiga qiziqishi bilan bog'lanadi. Manbalarda ba'zan uning taxallusi Sa'diy Sheroziydan ajralishi uchun Sa'diy Xorazmiy deb beriladi [A.Erkinov, N.Polvonov, H.Aminov, 2010, 110].

Ma'lumki, Feruz fors tili va adabiyotiga juda yaxshi bilgan. "Muhammad Rahimxon ikkinchi arabcha ilmga uncha havaskor emas, ko'proq fors tiliga havaskor edi. Shoirlardan Bolta Devon, adabiy nomi Nodim, Yusuf Xarrot, adabiy nomi Chokar, men – Bobojon Tarroh Xodim, Arabxon madrasasining oxuni Yusuf Hoji Oxund Doiylar Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Firdavsiyning "Shohnoma" asarlarini o'qib, saboqdan so'ng salom berish vaqtida o'qig'on darslarimizni Muhammad Rahimxon ikkinchiga aytg'onimizda, u xatolarimizni ko'rsatib berar edi. Ko'rinib turibdiki, Muhammad Rahimxon ikkinchi forsiydan juda bilimdon edi" [Bobojon Tarroh, 1994, 10]. Bu holat boshqa shoirlar, xususan, Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diyga ham ta'sir qilgan.

Sa'diy turkiy tilda مفرح القلوب "Mufarrih al-qulub" ("Qalblarni xursand qiluvchi") nomli axloqiy-falsafiy asar ham yozgan. Albatta, Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diyning ushbu asari shu mavzudagi boshqa asarlar ta'sirida yozilgan. Asarda inson hayotida tarbiyaning o'rni, inson xulq-atvori va insoniylik fazilatlarini ulug'lashga ahamiyat qaratilgan.

Boshlanishi:

Sanga ul hudoyig'a bo'lsun nisor,
Kamina bandasidur bori tojdor.

"Mufarrih al-qulub" nazmda yozilgan bo'lib, 10 bobdan iborat, har bir bob quyidagicha o'z nomiga ega: 1-bob. Halollik va haqiqat haqida. 2-bob. Yaxshilik haqida. 3-bob. Ishq haqida. 4-bob. Vijdon haqida. 5-bob. Saxovat haqida. 6-bob. So'zga sodiqlik haqida. 7-bob.

Uzrxohlik haqida. 8-bob. Sodiqlik va sadoqat haqida. 9-bob. Tavba. 10-bob. Munojot.

Asarning basmala, hamd, na't qismidan keyin Muhammad Rahimxon II ta'rifi va asarning yozilish sababi keltiriladi. Asarning 4^b-varag'ida shunday yoziladi:

Ayo Sa'diy etgil so'zing muxtasar,
Duosin oning aylabon beshumor.
Jahon ahli gar jam'i o'lubon mudom,
Ki madhini qilmoq uchun oshkor.
Desa garchi yuz yil oni madhini,
Tamom aylay olmas oni zarravor.
Qilib qiblagohing'a lutf-u karam,
Uzoq ayla umrini ey Bir-u Bor.
Fuzun aylab umrin oning Xizrdek,
Jahon koxi tokim erur poydor.
Sababi ta'lifi kitob:
Eshitib lutf etib arzin ey nekro',
Bu banda bayon etmak aylarsa xo'd.
Necha yil mani zor, ey baxtiyor,
Surib jurm-u isyon ila ro'zgor.
Shab-u ro'z isyon edi varzeshim,
Dog'i mast-u hayronliq erdi ishim.
Kuni jaddimizkim muborak nihod,
Qilib shahd oso kalom ila shod.
Dedilar karam shevasini tuzub,
Tarahhum mening holima ko'rguzub.

Har bir bobda she'rlar, hikoyatlar, sarguzashtlar berilishi muallifning fikr-mulohazalarini yanada aniqroq bayon etish uchun xizmat qilgan. Sa'dulloh to'ra Sa'diy asarning "Ishq bob" da o'zining ham muhabbati haqida bayon etadi va bu vaqtda 20 yoshda ekanligini aytadi (21^b-28^b-varaqlar). Ushbu asar 1324/1906-yili muallifning o'zi tmonidan ko'chirilgan avtograf hisoblanadi.

Sa'dulloh to'ra Sa'diyning otasi oxirgi Xiva xoni Sayyid Abdulloxon "1920 yil 1 fevralida sho'rolar inqilobi natijasida taxtdan voz kechib, Ukrainaga surgun qilinib, 1933-yil mart oyida surgun muddati tugagach, o'g'illarini Toshkentga jo'natib, o'zi esa o'sha yili 63 yoshida vafot etadi" [Bobojon Tarroh, 1994, 50].

Laffasiy Sa'diyning "oxir umrida xor-u zalil bo'lib, 1937-yili otib o'ldurdilar", – desa, Bobojon Tarroh – Xodim esa: "Sa'dulloh to'ra Xiva shahriga kelib, hech kim Sa'dulloh to'rani joyida bo'ldirishg'a Sovet hukumati siyosatidan qo'rqib, hech yerda

bo'lushni imkoniyati bo'lmog'oni uchun Muhammad Aminxon hammomining gurlahi degan joyida bo'lub yurib, rahmi kelgan odamlar non berib, shu o'rtada xor-u-zorliqda vafot etgan. Sa'dulloh to'rani jasadi, Xiva shahrini tashqari qal'asi Bog'ishamol darvozadan chiqg'on yerdagi Qamishli avliyo degan qabristonda qo'yulg'on bo'lsa ehtimol" [Bobojon Tarroh, 1994, 54], degan ma'lumotni beradi. Sayyid Sa'dulloh to'raning qabri hozirgi Xivadagi Qamishli avliyo qabristoniga qo'yilgan.

Asosiy qism

Matn tarixi tadqiqi badiiy asarning yozma yodgorlik sifatidagi qimmatini baholash, asarning hali fanga ma'lum bo'lmagan matni haqida to'liq tasavvur paydo etishda obyektiv asos vazifasini o'taydi hamda matniy tahlili uchun manba yaratadi. Qo'lyozma devonlar tavsifi va matniy tadqiqi xususida akademik Sh.Sirojiddinov shunday yozadi: "Qo'lyozma, agar u she'rlar to'plami bo'ladigan bo'lsa, matnshunos oldida ikki vazifa ko'ndalang turadi. Birinchisi, qo'lyozmaning tarixi va taqdirini o'rganish, ikkinchisi esa undagi asarning matnini tahlil qilish. Birinchi holatda matnshunos manbashunoslar kabi qo'lyozmaning tavsifiy belgilari, tuzilishi, tadqiq obyektiga aylanguncha bo'lgan davrdagi taqdiri, umumiy tekstologik belgilarini o'rganadi. Ikkinchi vazifa matnshunosning bosh vazifasi bo'lib, matn tahlilini amalga oshiradi. Bu holatda uning oldida asarning badiiy qimmatini belgilash uchun chuqur poetik tahlilni amalga oshirish, muallif g'oyaviy dunyoqarashini ochib berish va uning badiiy mahorati darajasini belgilash vazifasi turadi"[Sh.Sirojiddinov, 2019, 20].

"Devoni Sa'diy"ning 7092 raqamli qo'lyozmasi kitobat holati haqida gapiradigan bo'lsak, qo'lyozma muqovasida asar nomi "سعدى ديوان" deb ko'rsatilgan. "Devoni Sa'diy" – o'zbekcha (devon matni ichida forscha g'azallar ham uchraydi), akzis raqami 7092 bo'lgan, ko'k rangdagi karton qog'oz bilan muqovalangan, muqovasi to'q ko'k rangdagi mato bilan o'rtasidan mustahkam bo'lishi uchun yelimlangan, muqovaning chetki qismlari biroz uringan, rus fabrika qog'ozida yozilgan (qog'ozga o'yib bosilgan muhrda: "№4" deb ko'rsatiladi), kitob varaqlarining pastki qismi uringan, varaqlar soni 53, sahifalar arab sonida 106 gacha raqamlangan, kitobning birinchi va ikkinchi varagi bo'sh qolgan, o'lchovi 29×18,5, matn ustunlar soni ikkita, satrlar soni 16, 18, 19 tartibida yozilgan, matn hech qanday ramkaga olinmagan, asosiy matndan tashqari hoshiyada ham ayrim she'rlar berilgan, yozuvi nastaliq, sarlavhalar qizil, asosiy matn qora

siyohda yozilgan, poygir qo'yilgan, kotib tomonidan muhr, bezaklar qo'yilmagan, kotibi Mullo Boltaniyoz, kitobning 106-sahifasida O'zR FA Sharq qo'lyozmalari instituti muhri bosilgan. Ikki varaq bo'sh qolgan.

1-sahifada basmala "Bismillohi rohmoni rahim". Keyin ta'lifi kitob shunday beriladi: "Sayyid Sa'dulloh to'ra (zayyida umrahu) al-mutaxallas bis-Sa'diy ibni Sayyid Abdullo to'ra (zayyida umrahu) ibni Hotam nishon Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy – doma davlatahu".

Qo'lyozma shavvol oyi 1327/28 1909-1910-yili ko'chirilgan. (1327-yil 10-shavvol, taxminan 1909-yil, 24-oktyabr oyiga to'g'ri keladi U.S.).

Колофон: "Alhamdulillahi val-minnahu. Ushbu devoni Sa'diyni, kim bo amri Sulton-uz-zamon va Nodir ud-davron, a'ni Abul-Muzaffar val-Mansur Abul-G'oziy Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy(doma davlatahu va shavkatahu)ning farmoni oliylari bila 1327lanji yili mohi shavvolning o'nlanjisi chahorshanba kuni erdikim, Mullo Boltaniyoz al-mutaxallas bin-Nadimiy valadi usta Qurbonniyoz yozib itmomig'a yetkurdi. Tammatul-kitob biavni Malikul-vahhob".

Boshlanishi:

Zihi sone'ki sun'ig'a oning yo'qdur adad paydo,
Xiradga fikr etarga zoti pokini ne had paydo.

Oxiri:

Yo ilohiy man hazin qilg'il duosin mustajob,
Kim qilibdur dargahingg'a ajz birla iltijo.

"Devoni Sa'diy" qo'lyozmadagi she'rlar soni va janrlari quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ladi: **g'azallar 175 ta** (shundan 13 tasi: 10,11, 14, 26, 33, 54, 107, 108, 109, 116, 157, 164, 173-g'azallar fors tilida), (1^a-34^b-varaqlar), **mustazodlar 2 ta** (35^a-35^b-varaqlar), **murabba' 1ta** (35^b-36^a-varaqlar), **muxammas 15 ta** (shundan 1 "Mapo'rs" radifli muxammas fors tilida, 1tasi sahifa hoshiyasida, 36^a-43^b-varaqlar), **musaddas 5ta** (43^b-44^b-varaqlar), **musabba' 2ta** (44^b-48^b-varaqlar), **masnaviy 2ta** (48^b-51^a-varaqlar), **qasida 3ta** (51^a-53^b-varaqlar).

She'rlar asosiy matnda berilgan, hoshiyada faqat bitta muxammas yozilgan. Ushbu manba "Devoni Sa'diy"ning boshqa manbalariga qaraganda to'liq shakli deyish mumkin.

"Devoni Sa'diy"ning qo'lyozma va toshbosma manbalari tadqiqi davomida ularda janriy tarkib bir xil emasligi aniqlandi.

“Devoni Sa'diy”ning manbalari tarkibidagi she'riy janrlarning miqdoriy tahlilini ushbu jadvalda aks ettiramiz:

1-jadval

Inv. raqami	7092	909	6681	6666	1262	8951	8950	10280
G'azal	180 ta	128 ta	177 ta	51 ta	160	164 ta	46	160 ta
Mustazod	2 ta	–	2 ta	–	–	–	–	–
Murabba'	1 ta	–	–	–	–	–	–	–
Muxammas	15 ta	11 ta	17 ta	7	11 ta	12 ta	6	13 ta
Musaddas	5 ta	3 ta	4 ta	1	3 ta	3 ta	–	3 ta
Musabba'	2 ta	2 ta	1 ta	–	3 ta	2 ta	1	2 ta
Masnaviy	2 ta	2 ta	2 ta	1	3 ta	2 ta	2	2 ta
Qasida	3 ta	3 ta	1 ta	2	3 ta	2 ta	1	2 ta

Ushbu jadvaldan ma'lum bo'ladiki, “Devoni Sa'diy”nidagi she'rlari 7092 raqamli qo'lyozma hamda 909 raqamli qo'lyozmalarda to'liqroq jamlangan. “Devoni Sa'diy” 7092 raqamli qo'lyozmasi asosiy matnida 173 ta, hoshiyada 3 ta g'azal keltirilgan bo'lib, jami 180 ta g'azal berilgan.

“Devoni Sa'diy” tarkibida jami 22 ta harf (kof va gof birga) bilan tugaydigan radifli g'azallar mavjud. Har bir harf turkumidagi g'azallar soni quyidagi jadvalda aks etadi:

2-jadval

G'azal radifi	Matn+hoshiya / jami	G'azal radifi	Matnda / hoshiyada
ا	1 – 17 / 17 ta	س	88 / 1 ta
ب	18 – 31 / 14 ta	ش	89 / 1 ta
ت	32 – 41 / 10 ta	غ	90 / 1 ta
ث	42 – 45 / 4 ta	ق	91 – 92 / 2 ta
چ	46 – 48 / 3 ta	ک گ	93 – 106 / 14 ta
ح	49 – 50 / 2 ta	ل	107 – 115 / 9 ta
خ	51 – 53 / 3 ta	م	116 – 124 / 9 ta
د	54 – 57 + 2 / 6 ta	ن	125 – 145 / 20 ta
ذ	58 / 1 ta	ه	146 – 159 + 1 / 14 ta
ر	59 – 80 / 21 ta	ی	160 – 175 / 15 ta
ز	81 – 87 / 7 ta		

“Devoni Sa'diy”ning 7092 raqamli qo'lyozmasida shoir muxammaslari 42a-53b-sahifalarda quyidagi tartibda beriladi:

1-raqamdagi fors tilidagi “Man, ki yak sargashtai ishqam az avqotam mapo'rs, G'arqi bahri fikram az sirri xayolotam mapo'rs...” deb boshlanuvchi muxammas G'iyosiddin G'iyosiyning “Jandapo'shi rohi faqram az karomotam mapo'rs, Xoksori ko'yi ishqam az maqomotam mapo'rs...” deb boshlanuvchi g'azaliga taxmis;

2. Hoshiyada: “Hamisha kavkabi baxti o'zing mas'ud qil, yo

Rab, Na hojat iltijo qilsam oni man qud qil, yo Rab...“ deb boshlanuvchi muxammas Ogahiyning “Hazin ko‘nglim hamisha vosili maqsud qil, yo Rab, Ki ya’ni shohi odil xotirin xushnud qil, yo Rab...” deb boshlanuvchi g‘azaliga taxmis;

3-raqamdagi “Forug‘ o‘lmay dahrning olam-u asqomi bila, O‘zni mashul etmayin uqbo saranjomi bila...” deb boshlanuvchi muxammas Navoiyning “Vahkim umrim bo‘ldi zoyi barcha el komi bila, Bodayi nob o‘rnig‘a xunob oshomi bila...” deb boshlanuvchi g‘azaliga taxmis;

4-raqamdagi forscha “Zihi qodir ki alab dahr aro sun‘ ajab paydo, Ki sun‘ing zohir etmakka ne nav‘ hasab paydo...” deb boshlanuvchi muxammas Ogahiyning “Zihi jonlarg‘a vasling zavqidin aysh-u tarab paydo, Gahi dard-u firoqing xafvidin ranj-u ta‘b paydo...” deb boshlanuvchi g‘azaliga taxmis;

5-raqamdagi “Bu dam manga bazmim aro tarki sitam kelgil, Jafo-u ranjlarni holima aylab adam kelgil...” deb boshlanuvchi muxammas Feruzning “Ochilmish gul yetulmish bog‘i ziyinat ey sanam kelgil, Icharga bir nafas ahbob birla jomi Jam kelgil...” deb boshlanuvchi g‘azaliga taxmis;

6-raqamdagi “Ma‘shuqq‘a bu ko‘nglumi xush etdira bilmam, Zulmidin hazin tab‘im bo‘sh etdira bilmam...” deb boshlanuvchi muxammas Navrasning “Faryod, ki faryodima go‘sh etdira bilmam, Mo‘rg‘i dili shaydoyi xamush etdira bilmam...” deb boshlanuvchi g‘azaliga taxmis;

7-raqamdagi “Tez etar dardim o‘tin husningga oro berishing, Jam‘ o‘lur-mu manga hush gar esa yuz burushing...” deb boshlanuvchi muxammas Ogahiyning “Jong‘a orom berur jonda alifdek turushing, Ko‘ngul oromin olur ruhi ravondek yurishing...” deb boshlanuvchi g‘azaliga taxmis;

8-raqamdagi “Lutf etib manga bu dam jomi vasling ehson qil, Man hazin-u g‘amginni mushkilini oson qil...” deb boshlanuvchi muxammas Feruzning “Gul yuzing ochib ey gul majlisim guliston qil, Mehri orazing uzra kokuling parishon qil...” deb boshlanuvchi g‘azaliga taxmis;

9-raqamdagi “Zihi altofi haq bo‘lmish man bechorag‘a hamdam, Ki tiyra majlisimg‘a ul pariroyim kelib bu dam...” deb boshlanuvchi muxammas Navoiyning “Muvofiq kiydilar kiymish magar navro‘z ila bayram, Chaman sarvi yashil xil‘at mening sarvi ravonim ham...” deb boshlanuvchi g‘azaliga taxmis;

10-raqamdagi “Zihi sariri risolat uzra erursan shoh, Karam bila sanga Haq berdi oncha izzat-u joh, Shariating bila tuz yo‘l topar

bori gumroh, Yuz-u o'zingda muayyan kamoli sun'i iloh, Ne yuzdurur bu ne ko'z La ilaha illalloh" degan band boshlanuvchi yetti bandli muxammas tab' xud;

11-raqamdagi "Aylar erdim orzu ul chashmi fatton mujdasin, Kimsadin go'sh etmayin ul shohi xubon mujdasin..." deb boshlanuvchi muxammas Navoiyning "Subh yetkurdi sabo gulbargi xandon mujdasin, Yo ko'ngul topti masih anfosidin jon mujdasin..." deb boshlanuvchi g'azaliga taxmis;

12-raqamdagi "Yo Rab, ul yori jon oldig'a man zor, Tazarru birla qildim arzim izhor..." deb boshlanuvchi muxammas Feruzning "Kulib dedi manga bu kecha dildor, Bo'lubmusen manga asru giriftor..." deb boshlanuvchi g'azaliga yozilgan;

13-raqamdagi "Holima jo'm-u sitamlarni ravo ko'rmak nedur, Aylabon Majnun shior olamni ko'yduzmak nedur..." bayti bilan boshlangan muxammas Ravnaqning "Yor o'lub ag'yora man zoringni o'lturmak nedur, Rashk o'tig'a yuz tuman jonimni ko'yduzmak nedur..." g'azaliga taxmis;

14-raqamdagi "Bihamdullahki man mahzung'a lutfi behisob aylab, Raqibi ro'siyah bazmidin oxir ijtinob aylab..." deb boshlanuvchi muxammas Navoiyning "Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulru x shitob aylab, Xiromi sur'atidin gul yuza xo'ydin gulob aylab..." deb boshlanuvchi g'azaliga taxmis;

15-raqamdagi "Ey ko'ngul yuz yilg'i rohat bir damig'a arzimas, Doimo aysh aylasang g'am musmig'a arzimas..." deb boshlanuvchi muxammas Ogahiyning "Dahr bazmi ayshi anduh-u g'amig'a arzimas, Sharbati jon beruri muhlik g'amig'a arzimas..." deb boshlanuvchi g'azaliga taxmis yozilgan.

S.Matkarimova "Sa'diyning ko'pgina muxammaslari mahorat bilan yaratilgan, mazmunan boy va shaklan go'zaldir. Ayniqsa, Feruz g'azallariga bog'langan taxmislarda asos she'rning mazmun-mundarijasini, undagi voqelik izchilligini, hissiyotlarning, qarashlarning yanada yorqinroq ifodalanganligini ko'ramiz. Uning "Ohista-ohista" radifli muxammasi shoirning nazokat, zavq va did sohibi ekanligidan dalolat beradi, deb yozadi" [S.Matkarimova, 2007, 67]. Sa'diy devoni 7092, 909, 10280, 8951 raqamli manbalarida "Ohista-ohista" radifli muxammasi uchramadi.

Xulosa

Sobiq sho'ro tuzumi mafkurasiga ko'ra saroy adabiyotiga nisbatan feodal, zulmkor toifa ijodi sifatida qarash sababli shahzoda shoirlar tomonidan tuzilgan devonlar e'tibordan chetda qolgandi.

Xorazm devonchilik an'alarini o'rganish, shahzoda shoirlar tomonidan tartib berilgan devonlar manbalarining matniy tadqiqi va tahlilini amalga oshirish o'zbek adabiyoti tarixini to'ldiradi hamda bu davrning madaniy, adabiy muhitini o'rganadigan tadqiqotlar uchun muhim manba bo'ladi. Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diy hayoti va ijodi bugungi kungacha o'rganilmagan. "Devoni Sa'diy" devoni janrlar tarkibi xilma xil bo'lib, ularning asosiy qismini g'azal, muxammas, masnaviy, qasida kabi janr va she'riy shakllar tashkil etadi. "Devoni Sa'diy" qo'lyozma va toshbosmalari asosida matnini tayyorlash, nashr ettirish, o'zbek matnshunosligi va manbashunosligidagi muhim ishlardan sanaladi.

Adabiyotlar

- Бобожон Тарроҳ. (1994). Хоразм навозандалари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – В.35.
- Маткаримова С. (2007). Табибий – тазкиранавис: филол.фан.номд. дисс. – Т., В.67.
- Сирождидинов Ш. (2019). Матншунослик сабоқлари. – Т.: "Navoiy universiteti". – В. 20.
- Сирождидинов Ш., Умарова С. (2015). Ўзбек матншунослиги қирралари. – Akademnashr,
- Хажиева И. (2008). "Ҳафт шуаро" мажмуасининг Хоразм адабий муҳитидаги ўрни: Филол.фанлари номзоди...дисс. – Тошкент. – В.32.
- Эркинов А., Полвонов Н. Аминов Ҳ. (2010). Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси феҳристи. – Тошкент: Янги аср авлоди, – В.110.
- Qo'lyozma. ديوان سعدى O'zR FAShI Asosiy fond. Inv № 7092.
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=8977832395690647008&btnI=1&hl=ru>
- Makhmudovna, M. S., & Eisar, J. (2024). OBSERVATIONS ON THE LIFE AND CREATIVITY OF MURODIY. *American Journal of Philological Sciences*, 4(04), 122-128.
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 3(3).
- Мадиримова, С. (2022). Мутриб хонахароб хаёти ва ижодининг урганилиши. *in Library*, 22(1), 47-50.
- Умарова, С. (2022). Хоразм адабий муҳитида devonchilik an'anasi. *Ўзбекистан: тили ва маданияти*, 1(2), 14-25.
- UMAROVA, S. (2025). HIROT ADABIY MUHITIGA MONAND.... *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 237-240.

Copies of the “Divan” of Saadi Khorezm and its genre composition

Sohiba Umarova¹

Abstract

This article reflects the analysis of sources on the life and work of Sayyid sa'dullah Thura Saadi Khwarezmiy and the results of a textual study based on manuscript and toshbosama copies of “Devoni Saadiy”. The genre content in the “Devoni Saadi” is diverse, and the Devonian text reflects genre and poetic forms such as Ghazal, mustazad, musaddas, mukhammas, Masnavi, qasida. In all sources of the “Devoni Saadi”, the poetry miqtor is not given in the same way, the tabular rendering of the content of the genres clearly reflects the analysis process. At the same time, the issue of preparing the Tabdi of the “Devoni Saadi” to the current entry was revealed in the article.

Keywords: *Khwarazm, art, literature, textual studies, source, manual, text, research, analysis.*

References

- Bobojon Tarroh. (1994). Xorazm navozandalari. – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. – B.35.
- Matkarimova S. (2007). Tabiiy – tazkiranavis: filol.fan.nomd.diss. – T., B.67.
- Sirojiddinov Sh. (2019). Matnshunosliksaboqlari. – T.: “Navoiy universiteti”. – B. 20.
- Cirojiddinov Sh., Umarova S. (2015). O‘zbek matnshunosligi qirralari. – Akademnashr,
- Xajieva I. (2008). “Haft shuaro” majmuasining Xorazm adabiy muhitidagi o‘rni: Filol.fanlari nomzodi...diss. – Toshkent. – B.32.
- Erkinov A., Polvonov N. Aminov H. (2010). Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, – B.110.
- Qo‘lyozma. ديوان سعدى O‘zR FASHI Asosiy fond. Inv. № 7092.
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=897783239569064>

¹ Umarova Sokhiba Zakirovna – doctor of philosophy PhD, Uzbek Language and literature University named after Alisher Navoi.

E-mail: sohibaumar@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8733-8973

For citation: Umarova, S. Copies of the “Divan” of Saadi Khorezm and its genre composition. *Uzbekistan: Language and Culture*. 2025, 1 (2): 16-26.

7008&btnI=1&hl=ru

- Makhmudovna, M. S., & Eisar, J. (2024). OBSERVATIONS ON THE LIFE AND CREATIVITY OF MURODIY. *American Journal of Philological Sciences*, 4(04), 122-128.
- Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J. (2023). ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41-47.
- Madirimova, S. (2019). Mutrib Xonaxarob asarlari qo 'lyozmalarining ilmiy tavsifi. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 3(3).
- Мадиримова, С. (2022). Мутриб хонахароб хаёти ва ижодининг урганилиши. *in Library*, 22(1), 47-50.
- Умарова, С. (2022). Хоразм адабий муhitida devonchilik an'anasi. *Ўзбекистан: тзык и култура*, 1(2), 14-25.
- UMAROVA, S. (2025). HIROT ADABIY MUHITIGA MONAND.... *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 237-240.
- Umarova, S. Z. (2022). Diwanism in the Literary Environment of Khiva in the XIX-Early XX centuries. *International Journal of Social Science Research and Review*.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochtasiga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida

aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". *UZA: O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of

the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.
'

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago>.

edu/founders

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439-58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text (“As of July 19, 2008, the McDonald’s Corporation listed on its website . . .”). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. “Google Privacy Policy.” Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald’s Corporation. 2008. “McDonald’s Happy Meal Toy Safety Facts.” <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald’s 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com